



## ADAPTIVLIK TUSHUNCHASINING MAZMUNI VA MOHIYATI

*Normatova N.K.*

*Qarshi davlat universiteti maktabgacha ta'lim kafedrası doktoranti*

**Tayanch soʻzlar:** adaptatsiya, moslashuv, moslashuvchanlik, shaxs, bola, tabiat, jamiyat, tevarak-atrof, faolyait, oʻyin.

**Ключевые слова:** адаптация, приспособление, приспособляемость, человек, ребенок, природа, общество, среда, деятельность, игра.

**Key words:** adaptation, adaptation, adaptability, person, child, nature, society, environment, activity, game.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy maʼnaviy hayot darajasining yuksalishi taʼlim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Taʼlim sohasini isloh qilish bugun hukumatimiz diqqat eʼtiborida turgan dolzarb sohalardan biri desak mubolagʻa boʻlmaydi. Soʻngi yillarda maktabgacha taʼlim tizimini isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan qonunlar, qarorlar qabul qilinib amaliyotga joriy etilmoqda, bunga birgina misol: “Maktabgacha taʼlim tizimini yanada takomillashtirish boʻyicha 2017-2021 yillarga moʻljallangan Dasturi” [1] hamda Respublikada maktabgacha taʼlim tizimini yanada takomillashtirish boʻyicha “Yoʻl xaritasi” asosida misli koʻrilmagan ishlar amalga oshirilishidir. Sohada yigʻilib qolgan muammolarni hal etish uch yoshdan yetti yoshgacha boʻlgan bolalarning toʻlaqonli taʼlim - tarbiya olishini taʼminlash masalasi Davlatimiz rahbari tomonidan kechiktirib boʻlmas vazifa sifatida ilgari surilmoqda.

Maktabgacha taʼlim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha taʼlimdan teng foydalanishini taʼminlash, maktabgacha taʼlim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish, maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Oʻzbekiston Respublikasi maktabgacha taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 2019-yil 8-maydagi PQ - 4312- sonli qarorini imzoladi [2]. Bir soʻz bilan aytganda mazkur konsepsiya maktabgacha talim tizimini rivojlantirishning



maqsadli vazifalarini qamrab olgan bo‘lib, jarayonning ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab beradi. Bu esa o‘z navbatida har bir tarbiyachidan kasbiy mahoratlilikka ega bo‘lishni hamda bolalarga ta‘lim-tarbiya berish jarayonida kechadigan turli xil adaptatsion muammolarni xal etishni toqazo etadi.

Insonning ijtimoiy hayotga moslashchanligi muammosi uzoq davrlardan buyon ko‘plab fanlarning tadqiqot obekti bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa, uni ijtimoiy hayotga moslashtirish masalasi pedagogika fani oldidagi asosiy vazifalardan biridir. Bizga ma‘lumki, inson dunyoga kelishi bilan yorug‘ olamdagi barcha narsalarga, xususan, yorug‘likka, qorong‘ulikka, tevarak-atrofga, tabiatga, iqlimga, jamiyatga, insonlarga, fasllarga, ta‘lim muassasalariga, mahallaga, do‘stlarga, voqea-hodisalarga, axborotlarga moslashib boradi.

Insonning borliqdagi barcha narsa va predmetlarga moslashishi asosida uning ongi, dunyoqarashi, tafakkuri, fikrlashi, nutqi, axloqi rivojlanib boradi. Moslashuv (adaptatsiya) tushunchasini (lotincha adaptation-moslashish) ilmiy muomalaga dastlab nemis fiziologi X.Aubert tomonidan XIX asrning ikkinchi yarmida (1865 yil) kiritgan. X.Aubert bu tushunchani tana a‘zolarining tashqi muhit o‘zgarishlariga moslashishini tavsiflash uchun qo‘llagan. Fiziologiyada keng qo‘lanilgach moslashuv xususiy ilmiy tushuncha sifatida qolsada, biologiyaning boshqa sohalarida ham qo‘llangan. XX asrning o‘rtalaridagina moslashuv atamasi tibbiyot, kibernetika, psixologiya va boshqa fanlarda qo‘llandi va hozirda umumilmiy tavsifga egadir [4;155].

Adaptatsiya tilimizga lotincha “adaptatio” so‘zidan kirib kelgan bo‘lib, tabiat yoki jamiyat hayotida va insonlarning ma‘naviy-ruhiy olamida kechadigan o‘ziga xos jarayon bo‘lib, biror bir muhit yoki sharoitga, yangilikka mosluvini bildiradi.

Adaptatsiya tushunchasi ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyasi hisoblanib, u shaxsni ijtimoiy hayot va jamiyatga moslashuvchanligini samarali tashkil etishga yordam beruvchi asosiy omildir. Shaxs o‘zini o‘rab turgan voqelikdagi barcha narsalar, jarayonlarga moslashar ekan, uning ma‘naviyati, psixologik xususiyatlari shakllanadi. Chunonchi, sezgi, diqqat, idrok, nutq, tafakkur, hayol, xotira kabining rivojlanishi natijasida shaxs ilm oladi, hunar o‘rganadi, shaxslararo muloqotga kirishadi.

Moslashuv hodisasining ko‘plab ta‘riflari mavjud: Moslashuv (adaptatsiya) – jonli sistemalarning tashqi muhit bilan munosabatida sodir bo‘ladigan moslashuv jarayoni adaptogenezning ma‘lum natijasi [4;105].

Moslashuv – tabiat yoki jamiyat hayotida, insonning ma‘naviy-ruhiy olamida kechadigan o‘ziga xos jarayon bo‘lib, biron-bir muhit yoki sharoitga, yangilikka moslashuvni anglatadi [7;15].

Ijtimoiy moslashuv jarayoni nafaqat shaxsning yangi muhitga moslashishi balki, uning ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlarini amalga oshirishi hamdir.



Shaxs yangi ijtimoiy muhitga kirib, uning to'laqonli a'zosiga aylanadi, o'zini tasdiqlaydi va individualligini rivojlantiradi. Ijtimoiy moslashuv natijasida jamiyatda qabul qilingan aloqa, xulq-atvor va ob'ektiv faoliyatning ijtimoiy sifati shakllanadi, shu tufayli inson o'z intilishlarini, ehtiyojlarini, qiziqishlarini amalga oshiradi va o'zini o'zi belgilay oladi [6;55].

Pedagogika fanlari doktori N.M.Egamberdiyeva ta'kidlab o'tganidek, shaxsning ijtimoiylashuvi – ta'lim-tarbiya ta'sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yor va qoidalarining o'zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasi. Xulosa qilib aytganda, moslashuv, shu jumladan ijtimoiy moslashuvga aniq maqsadga qaratilgan pedagogik ta'sir ko'rsatish natijasi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir [3;120].

Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, adaptatsiyaning quyidagi turlari mavjud:

1. Sensor adaptatsiya – organizmning turli turli xil subektiv o'zgarishlarga moslashuvi. (Inson organizmining o'zi yashab turgan yoki boshqa iqlim sharoitlari, ob-havo, tabiatga moslasha olishi).

2. Ijtimoiy adaptatsiya – insonning ijtimoiy muhitga faol moslashuvi (inson o'zi ijtimoiy mavjudot sanaladi. Jamiyatda moslashish natijasida uning dunyoqarashi, ma'naviyati, tafakkuri, nutqi rivojlanib boradi).

Demak adaptatsiya shunday jarayonki, uning natijasida shaxsda quyidagi sifatlar tarkib topib boradi:

- jamiyatdagi shaxslar o'rtasida o'zaro axborot almashinuvi vujudga keladi;
- uning natijasida insonlarning maqsadu-maslaklari birlashib, jamiyatni harakatga keltiradi;
- inson adaptatsiya tufayli jamiyat va tabiatga to'g'ri va oqilona munosabatda bo'lishga o'rganadi;
- shaxsning moslashganlik darajasi o'sib borishi natijasida ma'lum kasbda uzoq va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi osonlashadi;
- shaxsda mustaqil fikrlash, o'z qobiliyatini erkin namoyon etish, yaratuvchanlik, bunyodkorlik, tashabbuskorlik kabi sifatlar tarkib topadi.

Umuman olganda shaxsda adaptivlikni qancha erta shakllantirishni boshlasak, shuncha maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, moslashish orqali shaxsda bilim, ko'nikma va tajriba shakllanadi. Shaxsda bilim va tajribani hosil qilish esa uzoq muddat davom etadigan jarayondir.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2016 yil, 29-dekabr, PQ-2707-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son qarori.



3. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 232 b.
4. Falsafa: ensiklopedik lug‘at. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – 344 b.
5. Ковалев, А. Г. Шахс психологияси. / А.Г. Ковалев - М.: Мйсл, 1973.
6. Georgieva, I.A Jamoada shaxsning moslashuvining ijtimoiy-psixologik omillari: muallif. dis. kand. psixolog. fanlar. / I. A. Georgieva - L., 1985. – 167 b.
7. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 760 b.

#### **РЕЗИОМЕ**

Ushbu maqolada adaptatsiya tushunchasining mazmuni va mohiyati hamda maktabgacha yoshdagi bolalarning adaptatsiya jarayoninin samarali tashkil etishning mazmuni yoritilgan. Shuningdek, maqolada tadqiqotchi olimlarning adaptatsiya tushunchasiga bergan ta’riflari, munosabatlari ham yoritib o‘tilgan.

#### **РЕЗИОМЕ**

В данной статье раскрыты содержание и сущность понятия адаптации и содержание эффективной организации адаптационного процесса детей дошкольного возраста. В статье также освещены определения и отношение ученых-исследователей к понятию адаптации.

#### **SUMMARY**

This article reveals the content and essence of the concept of adaptation and the content of the effective organization of the adaptation process of preschool children. The article also highlights the definitions and attitudes of academic researchers to the concept of adaptation.